

Mustaqil so‘z turkumlaridan yasalgan kishi nomlari

Pardaboyeva Adiba Shuxrat qizi

**Nukus davlat pedagogika instituti o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
talabasi. pardaboyevaadiba@gmail.com**

Annotatsiya: Ushbu maqolada antroponimlarning yasalishi, so‘z turkumlaridan yasalgan ismlarning o‘zaro ma‘nolari hamda antroponimlarning vazifasida antropoidikatorlar bilan qo‘shilib kelgan holda qarindoshlik otlari qo‘llanilishi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Antroponim, antropoidikator, ot, fe‘l, ismlar, qarindoshlik, o‘rta asrlar, pahlavonlik ismlari.

Имена лиц, составленные из независимых частей речи

Пардабоева Адипа Шухрат кизи

**Студент по направлению Узбекский язык и литература Нукусского
государственного педагогического института.**

pardaboyevaadiba@gmail.com

Аннотация: В данной статье раскрывается образование антропонимов, взаимные значения имен, образованных от словосочетаний, а также использование существительных родства в сочетании с антропоиндикаторами в функции антропонимов.

Ключевые слова: Антропоним, антропоиндикатор, существительное, глагол, существительные, родство, средневековые, призрачные существительные.

Names of persons made from independent parts of speech

Pardaboyeva Adiba Shuxrat qizi

**Student majoring in Uzbek language and literature at Nukus State
Pedagogical Institute.**

pardaboyevaadiba@gmail.com

Abstract: This article reveals the formation of anthroponyms, the mutual meanings of names derived from phrases, and the use of kinship nouns in conjunction with anthropoidicators in the function of anthroponyms.

Keywords: Anthroponym, anthropindicator, noun, verb, nouns, kinship, medieval, phantom nouns.

KIRISH

1. Ot va sifat soʻz turkumlaridan yasalgan kishi nomlari

Antroponimlar insonlarga maʼlum bir tilaklar, maʼlum bir sifatlarga ega boʻlsin degan maqsadda qoʻyiladi. Xalqimiz orasida chaqaloq tugʻilganda, uning koʻzi, qoshi, rangi yoki ajdodlariga oʻxshasin degan maqsadlarda ham ismlar qoʻyiladi. Antroponimlarning yasashida ot soʻz turkumining oʻrni katta. Ot soʻz turkumi kim? va nima? soʻroqlariga javob boʻladi. Ismlarni tahlil qilayotganimizda, uni har tomonlama oʻrgansak boʻladi. Keling, hozir ot soʻz turkumi orqali yasalgan qavm-qarindoshlik nuqtai nazaridan qoʻyilgan ismlarga eʼtibor beramiz.

Antroponimlar vazifasida antropindikatorlar bilan qoʻshilib kelgan holda quyidagi qarindoshlik otlari qoʻllaniladi. Chunonchi, Akajon, Bibigul, Bibijon, Bibinoz, Bibioy, Bibixon, Boboqul, Buvaxon, Buvjon, Dadaqul, Onajon, Onaxon, Otabek, Otaboy, Otaxon, Ogʻabek, Enaxon, Erbek, Erboy, Ertoy, Erqul, Oʻgʻil, Oʻgʻiloy, Qizlaroy, Qizlarxon, Qizlargul.

Qavm – qarindoshlik otlarining ismlarga qoʻshilishining albatta sababi bor. Qavm-qarindoshlik nomlarining antroponimlar vazifasida ishlatilishi tarbiyaning muhim omili boʻlib, yoshlarni oʻz avlodlariga sadoqat, hurmat ruhida tarbiyalash vazifasini oʻtagan. Buni ismlarning maʼnolari orqali ham koʻrib chiqsak boʻladi:

1. Otajon	Fors-tojikcha soʻzdan olingan boʻlib, otasining ismi berilgan aziz bola;
2. Ogʻacha	Xonqizi, aslzodalar yoki xon xizmatkori boʻlgan ayol;
3. Onaman	Marhum onasining nomi berilgan, onasini oʻrnini bosuvchi qiz;
4. Bibinor	Badanida qizil xol bilan tugʻilgan martabasi baland qiz;
5. Boboravshan	Bobosining ismini olgan oʻgʻilning hayoti nurli, saodatli boʻlsin;

Qoʻshma antroponimlarning birinchi qismi vazifasida qarindoshlik otlaridan quyidagilar ishlatiladi: aka-, bibi-, bobo-, buva-, dada-, jivan-, yigit-, nabira-, ona-,



ota-, og‘a-, pochcha-, singil-, tog‘a-, er-, o‘g‘il-, qiz-: Bibijamol, Bibikamol, Bibiniso, Boboali, Boboahmad, Bobonazar, Buvamuhammad, Buvaxon, Buvaoysha, Dadamir, Dadamirza, Dadamuhammad, Jiyanmurod, Yigitali, Nabira, Onagul, Onaxon, Otabek, Otayor, Otajon, Otamamat, Otamurod, Og‘abek, Og‘aberdi, Tog‘ay, Boboniyoz, Bobonazar, Bobomurod, Tog‘aymamat, Dadamat, Dadaberdi, Dadamurod, Jiyanniyoz, Jiyannazar, Qizlarmomo, Qizlarbibi, Momoqiz, Momoxol, Onaqiz, Onamoyva boshqalar.

Ot so‘z turkumidan yasalgan ismlar sirasiga Anora (fors-tojikcha, qizil holli, nori bor qiz), Asalbibi (arabcha, yoqimli, suyukli, aslzoda qiz) Durniso (arabcha, ayollarning bebahosi) Takaboy (ustun tagiga qo‘yiladigan marmartoshdek mustahkam yoki takadek kuchli, baquvvat bola yohud boy-badavlat bo‘lsin) Temirqul (Allohning temirdek mustahkam, ya‘ni umri uzoq bandasi) kabi ismlar kiradi. Ismlarning yasaliş asosi temir, taka, asal, anor so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

Avvallari qiz bolalarga “Tanga” degan ism ham qo‘yilgan ekan. Tanga so‘zi ot so‘z turkumiga kiradi va nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladi. Tanga ismining ma‘nosi, o‘tmishda 15 tiyin (Buxoroda), 20 tiyin (Toshkent va Farg‘onada)ga to‘g‘ri keluvchi kumush pul. Kumush tanga esa poklik ramzi ham hisoblanganligi uchun qizlarimizga, Tangaoy, Tanga, Kumushbibi ismlari qo‘yilgan.

O‘zbek tilida shunday ismlar ham borki, ularda kishilarning o‘z farzandiga bo‘lgan eng yaxshi tilaklari, odamlarning orzu va intilishlari, zamonaviy ideallari o‘z yorqin ifodasini topgan. Kishilar o‘z farzandlarining dovyurak va qo‘rqmas bo‘lib yetishishini orzu qilishi tilimizda Arslon, Botir, Mard, Sherbek, Qahramon, Eryigit, Azamat, Kuchlik, Shijoat, Qaytmas kabi ismlarning tug‘ilishiga olib kelgan. O‘g‘il bolalarga ism tanlash ham aynan shu farzandning kelajakdagi ko‘rinishi, mardlik belgilari bilan ham qo‘yilgan. Masalan, o‘g‘il bolalarni kelajakda polvon bo‘lsin deb, Bahodir, Pahlavon, Botir, Alpomish, Dovyurak, Shavvoz, Qobil, Shiddat, Quadrat, G‘ayratli va boshqalar. Albatta, asarlarda ham e‘tibor bergan bo‘lsangiz, o‘z yurtida pahlavonlik bilan nom chiqargan insonlarga oddiy ismlar emas, uning pahlavonlik sifatini bildirib turishi uchun Bahodir, Botir, G‘ayrat kabi ismlar tanlanadi. Keling, shular ichidan Bahodir va Botir kabi ismlar ma‘nosiga ham to‘xtalamiz: „Bahodir“, „Botir“ –

1) O‘rta asrlarda turk-mo‘g‘ul xalqlari qo‘shinida janglarda ko‘rsatgan ulkan jasorati va qahramonligi uchun beriladigan faxriy unvon. Chingiziylar davrida Chingizxon

avlodidan bo‘lmagan zodagonlar, yirik lashkarboshilarga bahodir unvoni berilgan. Keyinchalik bahodir ma’nosining ushbu ijtimoiy xususiyati yo‘qoladi va bahodir mo‘g‘ul zodagonlarining tarkibiy qismiga aylanadi. Turkiyshunos olimlarning fikricha, bahodir turkiy-mo‘gulcha „botir“ so‘zining forscha shaklidir.

Odamlarning haqgo‘ylik va adolatga, bilim va ma’rifatga intilishi, o‘z bolasining ana shunday fazilatlar egasi bo‘lishini orzu qilishi ham qadimiy va tabiiy hodisadir. Mana shunday orzular Adolat, Odil, Oqiljon, Donoboy, Orifa, Oqila, Fozil, Fozila, Erdona kabi nomlarning bizning davrimizga kelib keng tarqalishiga sabab bo‘ldi. Aynan bu turdagi belgilar kishi nomlarining sifat so‘z turkumidan yasalishiga misol bo‘la oladi. Mallagul, Mallacha, Mallabibi ismlari rang bildiruvchi sifat yordamida yasalgan. Bu ismlarning ma’nosi ham aynan malla sochli, sariqchadan kelgan qizlarga qo‘yilgan.

Aziza-(arabcha) bebaho, qimmatli; yuksak martabali, hurmatga loyiq, noyob, nodir; xudojo‘y, muqaddas ma’nolarida qo‘yilgan. Aziza ismining asosidagi “aziz” so‘zi qanday? so‘rog‘iga javob bo‘ladi va qadrlil, aziz bo‘lgan narsa yoki shaxsga nisbatan ishlatiladi: Aziz insonim, aziz Vatan! Aziz so‘zidan yasalgan ismlar qizlar ismini ham (Aziza), o‘g‘il bolalar ismini (Aziz, Azizbek, Azizxon) ham hosil qiladi. Ulug‘ so‘zi yordamida ham o‘g‘il bolalar, ham qiz bolalar ismini yasash mumkin. Masalan, Ulug‘bek, Ulug‘oy, Ulug‘xon kabi. Ulug‘oy ismi qiz bolalarga qo‘yiladi. Ma’nosi: ulug‘, qadr-qimmatli inson bo‘lsin degani. Biz kundalik turmushda ishlatadigan katta yoki uzun sifatlari biror narsaning hajmi, o‘lchovini bildiradi. Aynan bu sifatlar orqali ham kishi nomlarini hosil qilishimiz mumkin: Kattakon, Uzunoy, Kattabibi, Kattaoy, Kattamurod, Uzoqboy, Uzoqmuhammad, Uzunoy ismlari kiradi. Uzun so‘zidan yasalgan Uzunoy nomi umri uzoq bo‘lishi, yoki uzun qabilasidan bo‘lgan qizlarga qo‘yilgan.

Oqbibi, Oppoq, Oqbibish, Oqbilak, Oqbubak (oiladagi ikkinchi qizga qo‘yilgan), Oqchaqiz, Oqgulismlari rang bildiruvchi “oq” so‘zidan yasalgan va sifat so‘z turkumiga misol bo‘ladi. Bu ismlar qizbolalarga, pokiza, ma’suma, toleibaland, odobli qiz bo‘lsin ma’nosida qo‘yilgan. Tozagul va Tozaqul ismlari bokira, toza, hamma uchun qadrlil, guldek nozik qiz, ko‘rkam qiz ma’nosida qiz bolalarga qo‘yilgan.

Maqoladan xulosa qilishimiz kerakki, antroponimlarning yasalishida so‘z turkumlarining o‘rni katta. Ismlarning yuzaga kelishi va qo‘yilishiga sabab bo‘lgan yuqorida keltirib o‘tilgan fikrlar turkiy xalqlarda azaldan uchraydi. Biroq, hozirgi

o‘zbek yoshlarining ismlariga nazar solar ekanmiz,ularning ota-onalari o‘z farzandining “ismi – jismiga monand” bo‘lishiga qanchalik e‘tibor berishlarini payqashimiz mumkin. Antroponimlarning yasashida son so‘z turkumining ham o‘rni katta. Darslardan bizga ma‘lumki, son so‘z turkumi qancha?, nechta? kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi va miqdorni bildirib keladi.

Oltiboy, Oltimhammad, Oltimurod ismlari “olti” sonidan hosil qilingan bo‘lib, olti barmoqli bola, oiladagi oltinchi farzand, oiladagi oltinchi farzandni Muhammad (s.a.v.) o‘z panohida asrasin ma‘nolarida o‘g‘il bolalarga qo‘yilgan. Beshnazar, Beshimqul, Beshmurod, Beshmhammad, Beshim,Beshboy ismlari o‘g‘il bolalarga, Allohning iltifoti bo‘lgan beshinchi farzand, Beshboy ismi esa begona, yot, ya’ni bu bola bizniki emas, chaqaloqni yovuz kuchlardan asrash maqsadida shu nomlar berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avezova A. O‘zbek va turk antroponimlarining leksik-semantik xususiyatlari. – T.: O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali,2022.
2. Аблитарова, Л. Э. Формирование имен и фамилий у различных
3. Begmatov E. Nomshunosligimizning tadqiq yo‘llari//Til va adabiyot ta’limi,1992,2-son.-B.4.
4. “Формирование имен и фамилий у различных народов, проживающих на территории Крыма”
5. Muhamedova S. O‘zbek ismlarining lingvistik tahlili. – T.: Toshkent, 2023.
6. Nazarova N. Antroponimlarning o‘rganilishi. – T.: International Scientific Conference,2021.
7. Odob-ahloqqa oid hadis majmualari. –T.: Fan, 1990. –B.148
8. Sirojiddin Rustamov, www.oyina.uz
9. O‘zbek tilidagi bayramlar bilan bog‘liq tasviriy usullar xususida,B.3.
10. O‘ljayev Sh. <https://www.facebook.com/groups/246149995752425/posts/330761413957949/>